

ANVAR OBIDJON HIKOYALARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Fozilova Odina Nabiyevna

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori(PhD) FarDU, maktabgacha ta'lim
kafedrası v/b dotsenti.*

Tel: +998910453676.

***Annatsiya:** Maqolada Anvar Obidjonning bolalarga atalgan hikoyalaridagi uslubiy xususiyatlar tahlil etilgan. Yozuvchi mahoratiga xos jixatlar yoritib berilgan.*

***Tayanich so‘z va iboralar:** uslub, hikoya, badiiy mahorat, yozuvchi dunyoqarashi, bolalar adabiyoti, yumir, tasvir uslubi.*

Ma'lumki, uslub, "poetikaning muhim kategoriyalaridan biri; badiiy asarning u yoki bu tarzda shakli qurilishining belgilovchi umumiy prinsipi. U antropologik, ya'ni ijodkor shaxsi bilan bog'liq kategoriya sanalib, uning ijodiy induvidualligini belgilaydi" [Qurbonov D... 1:339]. O'zbek tilining izohiy lug'atida "Yozuvchining biror asar yoki adabiyot janrining til vositalaridan foydalanishidagi o'ziga xos yo'li, usuli"[2:281] deya ta'riflanadi. Shuningdek, uslub:" 1. Yozuvchi ijodi uchun xarakterli bo'lgan ifodali yo'li, g'oyalar birligi, dunyoqarashning umumiyliigi. 2.Ifodalash usuli. Zamonaviy adabiyotshunoslikda uslub termini ikki ma'noni ma'lum bir ijodkorning va ijodkorlar guruhining ifodalash usulini anglatadi" [Xotamov N, Sarimsaqov B 3:296]. Yozuvchi uslubi esa "Ijodkorning o'ziga xos tili, xarakter yaratish va badiiy quvvati. Har bir chinakam ijodkor o'z uslubiga ega bo'ladi. Uslub ijodkorning o'zligini, mustaqilligini belgilaydi.Uslubning shakllanish jarayoni juda murakkabdir. Adabiyot tarixini bilmasdan turib, yozuvchi uslubini aniqlash juda qiyin" [2:11].

O'zbek bolalar hikoyachiligi taraqqiyotida Anvar Obidjon ijodi alohida o'rni bor. Ayniqsa, u yengil yumor bilan yo'g'irilgan betakror tasvir uslubi bilan o'zbek bolalar hikoyachiligini yangi bosqichiga olib chiqdi.

Anvar Obidjonning "Pashshavoyning boshidan kechirganlari" hikoyasi qahramoni Pashshavoy. Voqealar ana shu Pashshavoy tilidan bayon etiladi. Muallif ushbu asarga "mitti roman-fojea" degan eslatmani kiritgan, uni kichik qism va boblarga ajratib, roman shakliga keltirgan bo'lsada, ushbu asar hikoya janri mansubdir. Yozuvchi bu bilan romanni shakliy jixatlarini ham o'ziga xos yumor bilan ifodalayotgandek bo'ladi. Asaring birinchi qismi "Xonadonning yemirilishi" deb nomlanib to'rt bobdan iborat. Yozuvchi Pashshavoyni odam singari so'zlatish, ularning insonlar tarjimai holiga o'xshash bayon tarzini asari kiritish orqali jonli, hayotiy ifodani yaratishga erishadi. Hikoyada Pashshavoy oilasi bilan "Sharq" oshxonasi shifti kandikidagi hayoti qiziqarli voqealarga boy. Oshxonaga kirgan odamlar ko'p ichishar, pashshalar orasidan chiqqan piyanistalar ichishni ana shu

odamlardan o‘rgangan ekanlar. Yozuvchi araqxo‘rlikni zararini bolalarning yosh xususiyatlariga mos holda yumor bilan tasvirlarkan, “Araqxo‘r pashshalardan bittasi mening dadam. U har kuni kayfi taraqqul kelib, ayam bechorani do‘pposlagani-do‘pposlagan. Uyda tinch kun yo‘q. Akamning jahli chiqib, bir-ikki marta dadam bilan aytishib ham qoldi... Araq deganlari juda qasofati narsa ekan. Sog‘-salomat ulg‘ayib olsam, bu la‘natini yaqiniga yo‘lamaganim bo‘lsin-yey!” [Anvar Obidjon 4:104]. Lekin ko‘p o‘tmay Pashshavoyning dadasi qadahga quyilgan araqqa cho‘kib ketib, olamdan o‘tdi. Ushbu fojeaning sababini Pashshavoyning ayasi shunday kuyinib izohlaydi; “Rahmatli o‘ziyam keyingi paytda haddidan oshib ketuvdi. Avvallari aroq yuqi idishlarni yalab yurardi. Bora-bora qadahlarga odamlardan oldinroq tumshuq suqodigan bo‘ldi” [Anvar Obidjon 4:109].

Ko‘p o‘tmay nonvoyxonadagi tandir yonida yashaydigan qari Pashshadan Pashshavoyning ayasiga sovchi keladi. Sababi qari Pashshaning kampirini bir yallachi Qurbaqa “kap otib” qo‘ygan ekan. Pashshavoyning ayasi esa sovchilarga “O‘sha uyatsiz cholni boshimga uramanmi!? Unga tul qolgan bironta Itpashshani topinglar” [Anvar Obidjon 4:106] deya keskin javob beradi. So‘ng Pashshavoyning akasi surbet odamlardan oshxonani holi qilish uchun bo‘lgan jangda doridan zaharlanib o‘ladi. Ko‘p o‘tmay Pashshavoyning ayasi ham ityalaqdan qoldiqlar bilan ovqatlanayotgan paytda ustiga to‘kilgan yuvindiga cho‘kib halok bo‘ladi.

Asarning ikkinchi qismi “Darbadarlikda” deb nomlangan bo‘lib, to‘rt bobdan iborat. Yetim qolgan pashshavoyni pochchasi bilan opasi o‘z xonadonlariga-bir badavlat odamning dang‘illama uyidan qimmatbaho javon olib olib ketishadi. Shu kuni Pashshavoy pochchasining qari buvisi murabboga botib, so‘ng opasi allanima surtilgan qog‘ozga yopishib o‘ladi. Yozuvchi insonni tubanlikka yetaklovchi irodasizlik, qo‘rqoqlikni pochcha iqrori orqali o‘ziga xos tarzda ifodalaydi:

“- Men haqimda yomon o‘ylamagin, - ko‘zimga qaramay asta gapirdi u. - Opanga yordam berishim mumkin edi. Lekin unda sevimli pochchangdan ham ayrilib qolgan bo‘larding” [Anvar Obidjon 4:109]. Ammo pochcha ham ko‘p o‘tmay xonada ivirsib yurgan kampirni qo‘lidagi charm shilpildoq bilan kitobga paqqos “chaplab qo‘yiladi”. Ushbu voqeadan keyingi Pashshavoy kechinmalarni shunday ifodaladi: “Shunda o‘ylab qoldim pochcham-ku, bari bir o‘lar ekan, o‘shanda opamga yordam berib u bilan birga yelimga qorishib ketaversa bo‘lmasmidi? To‘g‘ri, bir necha kun oldinroq o‘lardi, lekin o‘zidan yaxshi nom qoldirardi. Uning bu ishini boshqa pashshalar uzoq vaqtgacha bir-birlariga gaplashib yurishmasmidi?” [Anvar Obidjon 4:110].

Asar “Xotima” sida yozuvchi ushbu “roman-fojea”ni bir baxtsiz Pashshaning cho‘ntagidan topilgan yondaftaridagi esdaliklari asosida yozganini

qayd etarkan, uning keyingi taqdiri quyidagi ma’lumotni beradi: “Musibat haqida gapirish qanchali og‘ir bo‘lmasin, axborotingiz uchun yana bir narsani aytib qo‘yish shart: o‘sha darbadar Pashsha 1978-yilning sakkizinchi avgustida men tanavul qilib turgan qaynoq sho‘rvaga tushib, fojeali halok bo‘ldi” [4:112].

Xullas, Anvar Obidjonning bolalarga bag‘ishlangan ushbu hikoyasining o‘ziga xos uslubiy jihati pashshalarni ana shu tarzda odamlar singari fikrlatadi, o‘zaro ulardek muloqotga kiritadi. Bu esa kulgi uyg‘otadi. Pashsha esa bolalarni o‘zlarining iflos narsalariga, joylarda ovqatlanishlariga iqror bo‘lgani holda bu haqdagi bilimlarni yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar:

1. Qurbonov D, Mamajonov Z, Shermatov M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. - Toshkent: “Akademnashr”, 2010.-B.339.
2. O‘zbek tilining izohiy lug‘ati. “Ikki tomli. Ikkinchi tom.-M.: “Rus tili”, 1981. - B.281.
3. Xotamov N, Sarimsaqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. -Toshkent: O‘qituvchi, 1970. -B.296.
4. Anvar Obidjon. Oltin yurakli avtobola. -Toshkent: “Yosh gvardiya”, 1998.- B.113.